

QO‘QON XONLIGI VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARI

*Ijtimoiy va Siyosiy fanlar Instituti Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Xalilova Fotimaxon Nishon qizi*

Annotatsiya: Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi elchilik munosabatlari tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir davrni ifodalaydi. Qo‘qon xonligi, XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo hududida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan bo‘lib, o‘zining iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Rossiya Imperiyasi esa, o‘sha davrda o‘z ta’sirini kengaytirishga intilayotgan kuchli davlat edi. Bu munosabatlar asosan savdo, diplomatiya va harbiy hamkorlik asosida rivojlangan. Qo‘qon xonligi o‘zining strategik joylashuvi sababli Rossiya uchun muhim savdo yo‘llarini nazorat qilish imkonini berdi. Rossiya esa, Qo‘qon xonligida o‘z ta’sirini oshirish va O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlar bilan munosabatlarini mustahkamlash maqsadida elchilar yuborishga intildi. Elchilik munosabatlari orqali ikki tomonlama savdo aloqalari rivojlandi. Qo‘qon xonligi Rossiya bilan turli mahsulotlar, xususan, paxta, ipak, va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini almashdi. Rossiya esa, Qo‘qon xonligiga harbiy texnika va qurollar, shuningdek, boshqa sanoat mahsulotlarini yetkazib berdi. Bu savdo aloqalari ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy jihatdan o‘zaro manfaatlar yaratdi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi va Rossiya, savdo aloqalari, munosabatlar, madaniyat, harbiy texnika va qurollar.

Qo‘qon xonligini elchilik munosabatlari Rossiya davlati bilan iqtisodiy masalalarni ko‘zlab tashkil etilgan. “Muntahab ut-tavorix” (Muhammad Hakimxonni), “Tarixi Aliquli Amirlashkar” (Toibniki), “Xulosat ul-ahvol” (Abu Ubaydulloh Toshkandiy) asarlarida Qo‘qon xonligi va Rossiya davlati o‘rtasidagi elchilik aloqalari keng yoritib berilgan. Masalaga oid ma’lumotlarni O‘zMA 1043-fondida ham uchratilsada, ular asosan Xudoyorxon hukmronligi davrlariga to‘g‘ri keladi. [1]

Qo‘qon xoni Olimxon 1804 yilda O‘rta Qozoq o‘rdasidagi Qorakesek volostinyng sultonı Bukey xududidan Rossiya podshosiga ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini o‘rnatish va bunda Toshkentni boshlanish nuqtasi etib belgilashni so‘raydi. Toshkent bekligi Qo‘qon xonligiga kiritilganidan keyin Olimxon Toshkentdan Garbiy Sibir orqali rus davlatiga boradigan karvon yo‘llari orqali Qo‘qon elchilarini rus davlatiga yuborishga harakat qilgan.

N.Topildievning tadqiqotida polkovnik Strukov tomonidan tuzilgan raportda Qo‘qon xoni Olimxon Toshkent orqali Rossiya bilan o‘rtadagi aloqalarni darhol

bog'lab uni kengaytirishga harakat qilayotganligini yozilgan. Rossiya bilan elchilik aloqalarini samarali davom ettirish maqsadida Qo'qon xoni Olimxon Toshkentdan Rossiyaga qaytayotgan rus savdogarlari bilan birlikda toshkentlik Rahmatullaboy boshchiligida o'z elchilarini Petropavlovskga yuboradi. U elchilar orqali Sibir ma'muriyatiga savdo aloqalarini rivojlantirishni taklif etadi. Lekin elchilarning o'z vazifalarini qanday bajarganliklari haqidagi ma'lumotlarga ega emasmiz.

Qo'qon xonligi bilan aloqalarni davom ettirish maqsadida chor hukumati 1813 yilda o'z vataniga qaytayotgan Qo'qon elchilarini bilan birgalikda Filipp Nazarovni Qo'qonga yuboradi. F. Nazarov 1813 yil may oyida Qo'qon xonligiga jo'nayotgan savdo karvoni bilan birgalikda Omskdan chiqib, Petropavlovsk orqali Toshkentga qarab yo'l oladi. Elchilar va savdo karvonini chor hukumati harbiy otryadi kuzatib boradi. Ular Dashti qipchoqni kesib o'tib, Turkiston va CHimkent orqali Toshkentga keladilar. F. Nazarovning ma'lumotlariga qaraganda, 1812 yilda Qo'qondan ikki kishidan iborat Rossiyaga elchilar yuborilgan bo'lib, ulardan biri kasallanib Petropavlovskda vafotetgan. Ikkinchisi esa o'sh ajoygasurgun qilingan rus soldati bilan tanishgan. Bu soldat elchining pul va narsalarini olish uchun uni o'ldirgan. Ana shu ko'ngilsiz voqeani tushuntirish uchun Sibir liniyasi korpusi komandiri tomonidan uni Qo'qon xonligiga yuborilgan edi.[2]

Toshkent qo'shbegisi bu elchilarini yaxshi qabul qiladi. Ular bu yerda 4 kun turganlaridan so'ng Qo'qongajo'naydilar. Qo'shbegi taklifiga muvofiq rus savdo karvoni vaelchilarni kuzatib kelgan qozoqlardan 15 kishi (ular hammasi bo'lib 40 kishi edi) Toshkentga keladilar. F. Nazarov boshliq elchilar 1813 yil oktabrning boshlarida Qo'qonga boradilar. Qo'qonelchisi Petropavlovskda o'ldirilgan bo'lishiga qaramay, rus elchilarini xon va uning amaldorlari tomonidan hamma elchilik qoidalariga muvofiq hurmat va izzat bilan qarshi olinadi. Nazarov chor hukumati tomonidan Umarxonga yo'llangan yorliq va esdalik sovg'alarini topshiradi.

Elchilarga Qo'qon shahar ko'chalarida va bozorlarida bemalol yurishlari uchun ruxsat beriladi. 1814 yilning boshida rus elchisining hamrohlariga o'z vatanlariga qaytishlari uchun ruxsat berildi. Biroq, F.Nazarov o'ziga esa hozircha Qo'qonda qolishi va bahorda Qo'qon elchilarining o'limi sabablarini aniqlash uchun Sibirga yuborilgan Qo'qon xoni vakillari hamda savdo karvoni bilan birgalikda Sibirga jo'natilishi ma'lum qilinadi.[3]

Shu bilan birgalikda F.Nazarovning Sibir orqali Rossiya bilan xonlik o'rtasida savdo yo'lini ochishga kel ganligi sababli bahorda rus davlatiga boruvchi karvonlar bilan birgalikda o'z vataniga qaytish maqsadga muvofiq deb ko'rsatildi.

Qo'qondan 1814 yil avgust oyida F.Nazarov savdo karvoni bilan birgalikda 200 ga yaqin Qo'qon askarlarining kuzatuvida Toshkentga va u yerdan Rossiyaga qarab yo'lga chiqadi. Qo'qon xoni Filipp Nazarov bilan birgalikda ikki kishidan iborat o'z elchilarini Rossiyagayuboradi.

SHunday qilib, F. Nazarov elchilik faoliyati Qo‘qon elchilarining o‘limi sabablarini Rossiyada ma’lum qilish va savdo karvonlarini boshqarish bilan chegaralandi xolos. SHunga qaramay F. Nazarov Qo‘qon xonligi va savdo yo‘llari haqida ayrim qimmatli ma’lumotlar qoldiradi. Bu ma’lumotlar bo‘yicha Qo‘qon xonligi o‘zbek xonlarining orasida salmoqli o‘rinni egallagan bo‘lib, Buxoro, Xiva, Turkiston, Xitoy, Afgoniston, SHarqiy Turkiston va qolaversa, Hindiston, Qashgar va Eron bilan savdo aloqalarini muvaffaqiyatli olib borgan.

XIX asrning 20-yillarida Toshkent orqali u Qo‘qon hamda Rossiya bilan savdo-sotiqning kengayishiga karvon yo‘llaridagi talon-tarojliklar xalaqit bermoqda edi. Qo‘qon xonligidan chiqqan savdo karvonlari qaroqchilar tomonidan tez-tez talanib turishi arxiv ma’lumotlarda ko‘p ta’kidlanadi. Bu esa Qo‘qon xonligiga karvonlarning xavfsizligini ta’minalash vazifasini qo‘yadi. SHunday qilib, har ikki tomonning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga harakat qilishi ular o‘rtasida elchilik aloqalarini jonlanishiga olib keldi. [4]

1816 yil aprelda Sibir yo‘nalishining boshligi general-leytenant Glazenap o‘zaro savdo-sotiqni jlonlantirish taklifi bilan Qo‘qon xonligiga Usov boshchiligidida 3 kishidan iborat elchilarini yuboradi. Elchilar Rossiya shaharlarida savdo qilib o‘z vatanlariga qaytayotgan toshkentlik savdogarlardan Nazar Mirzo va Boboxonov boshliq karvon bilan Petropavlovskdan jo‘naydilar.

Rus elchilari Toshkentda-hurmat va ehtirom bilan qabul qilinadi. Usov general-leytenant Glazenapning Qo‘qon xonligiga nisbatan bo‘lgan hurmat va do‘stligini namoyish qilish uchun Umarxon nomiga yozilgan yorliq va sovgalarini xonga topshirish uchun Toshkent hokimi va Askar boshligiga taqdim etadi.

Elchilar Toshkentda bir hafta bo‘lganlaridan keyin Qo‘qon xoni Umarxonning taklifi bilan Toshkent lashkarboshisining kuzatuvida Qo‘qonga boradilar. Xon huzurida rus elchilari hurmat bilan qabul qilinib, ularga esdalik sovg‘alar topshirildi. SHuningdek, general leytenant Glazenap nomiga xon tomonidan yozilgan yorliq qimmatbaho sovgalar bilan topshirildi. YOrliq mazmuniga ko‘ra; Umarxon Qo‘qon xonligi bilan chor Rossiyasi o‘rtasida odatga aylanib borayotgan do‘stlik va savdo aloqalarini doimo davom ettirish va rus karvonlariga nisbatan o‘zining har doimgi g‘amxo‘rligini ko‘rsatishga tayyor ekanini ma’lum qiladi. Rus elchilari 1817 yil iyun oyida o‘z vatanlariga qaytib ketadilar. SHuning uchun ham biz bu vaqtida Sibirga kelgan Qo‘qon elchilarining mahalliy hukumat oldiga ko‘proq karvon yo‘llarida xavfsizlikni ta’minalash masalasini qo‘yaboshlaganligini ko‘ramiz.

1824 yil iyun oyida, Xonkeldi Bobojonov va G‘anixo‘ja Zulfiqor eshonlardan iborat Qo‘qon vakillari Omskka bordilar. Ular Qo‘qon xoni Madalixon va Toshkent qo‘shbegisi tomonidan yuborilgan edilar. Bu elchilar Garbiy Sibir orqali Peterburgga borib, imperatorga Madalixonning xatini sovgalar bilan topshirishlari kerak edi. Xatning mazmuniga ko‘ra, Karkarali okrugi aholisi tomonidan Qo‘qon karvonlari

talanayotganligi haqida xabar qilinib, bosqinchilarga nisbatan qatiy chora ko‘rishlikni imperatordan iltimos qiladi.[5]

Biroq noma'lum sabablarga ko‘ra Qo‘qon elchilari Peterburgga borishlari uchun garbiy Sibir ma’muriyati tomonidan ruxsat berilmaydi va ular uzoq vaqt Omskda ushlab qolinadi. YUborilgan elchilarni G‘arbiy Sibirda ushlab qolinganligining sabablarini aniqlash va o‘zaro do‘stona munosabat va savdo karvonlarini qaroqchilardan himoya qilish masalasi yuzasidan fikr almashishi uchun, Omskga 1825 yil 14 mayda Qo‘qon xonligining elchisi to‘qsabo Soatbek Sultonbekovboshchiligidagi elchilar yuboriladi. Ular Qo‘qon xoni MuxammadAlining og‘zaki buyrug‘iga muvofiq Toshkent qo‘shbegisi tomonidan yuborilgan edi. Bu elchilar esa sulton Xudoymindi Ishimxon odamlari tomonidan talanib, ikki kishi bilan birgalikda mol-mulk va oti ushlab qolinadi. Bundan norozi bo‘lgan S.Sultonbekov Omsk oblasti boshligi, polkovnik Bronevskiyga talonchilar ustidan shikoyat qilib, Rossiya imperiyasiningtobesi bo‘lgan sultonga nisbatan chora ko‘rishnitalab qiladi. Omsk oblast boshligi Bronevskiy, sulton Xudoymindi Ishimxonga ushbu mazmunda buyruq beradi: “Omskga yetib kelgan Qo‘qon to‘qsaboshi - elchi S. Sultonbekov siz va qarindoshlarini Japaq ustidan shikoyat qilib, yo‘lda sizning odamlaringiz tomonidan uning ikki odami va mol-mulki hamda oti ushlab qolinganligini ma’lum qildi. Ushlab qolangan narsalar odamlar bilan Karkarali prikaziga keltirib topshirilsin va bu haqda bizga ma’lum qilinsin” Polkovnik Bronevskiy o‘zining ko‘rgan ushbu chorasi haqida elchilarga xat orqali xabar berib, ularni Omskda kutayotganligini bildirdi. 1825 yili iyun oyida elchilar Omskga yetib borib, Toshkent qo‘shbegisining ikkita xatini va u tortiq qilib yuborgan 2 argumoq otni topshiradi.

Qo‘qon elchisi S. Sultonbekov Omsk oblast boshligiga o‘z nomidan yozgan xatida bundan 3 yil ilgari yuborilgan Qo‘qon elchilarining nima uchun ushlab qolinganligini surishtirib, ularning qaytarishlarini so‘raydi. SHuningdek, elchi Sibirda yashovchi qo‘qonlik savdogarlardan ayrim mahalliy hukumat vakillarining qonunsiz soliq olayotganligiga norozilik bildirib, uni to‘xtatishni ham so‘raydi³⁰. Yana ushbu xat da Qo‘qondan surgun qilingan mingboshi Yusufbekning nazorat ostiga olinishini va 1822 yilda Tagaev volostidagi karvonboshi Xayirkel karvonning Sulton Sultongozi qoyanchi tomonidan talanganligiga qarshi chora ko‘rishlikni talab qildi. SHu bilan birgalikda ko‘chmanchilarining taloniga butunlay barham berilishini so‘radi. “Mening iltimosim shuki,-dedi, S.Sultonbekov xatning oxirida, har ikki tomon o‘rtasidagi savdo-sotiq xavf-xatarsiz bo‘lsin. Chor hukumati menga bir kishini qo‘shib yuborsin, men u kishini sog-salomat yana Rossiyaga keltirib qo‘yish majburiyatini olaman”. XIX asrning ikkinchi o‘n yilligida chor hukumatining qozoqlarni o‘z tobelsinga kiritishga hamda ular ustidan o‘z ta’sirini mustahkamlashga qaratilgan harakati kuchaygan edi. [6]

O‘zaro urushlardan tinkasi qurigan Katta juz aholisi o‘zlarining Rossiya imperiyasi tobelligiga qabul qilinishini so‘rab chor hukumatiga murojaat qiladilar. 1819 yil yanvarda chor hukumati ularning iltimoslarini qondiradi, hamda Katta juzning Rossiya imperiyasi tobelligiga o‘tganligini rasmiy ravishda e’lon qiladi. SHuningdek, bu davrda chor hukumati Katta juzda o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida bu yerda okrugl ar tashkil qilishga kirishadi. Ma’lumki, Toshkent shimoli-g‘arbida ko‘chib yuruvchi Katta juzning ko‘pgina uruglari Olimxon, so‘ngra Umarxon tomonidan Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirilib, zakot to‘lashga majbur qilingan edi.

Bundan tashqari Umarxon bu vaqtida Katta juzni butunlay Qo‘qon xonligi tobelligiga kiritish hamda Qozog‘istonda o‘z ta’sirini kuchaytirishga intilmoqda edi. SHuning uchun ham Katta juzning Rossiya tobelligiga o‘tishi va chor hukumatining bu juz ustidan o‘z mavqeini mustahkamlashga intilishi Qo‘qon xonligi hukmronligi doiralarining noroziligini vujudga keltirdi.

Qo‘qon xonligidagi mana shu kayfiyat Toshkent qo‘shbegisining Sibir ma’muriyatiga yuborgan xatlarida o‘z aksini topdi. Qo‘qon elchisi taqdim etgan xatlar va uning talablariga javoban, Omsk oblast boshligi polkovnik Bronevskiy Sibir general-gubernatorining topshirigi va ko‘rsatmasiga muvofiq, Toshkent qo‘shbegisi nomiga xat yozib Soatbek Sultonbekovga topshiradi.

Ushbu xat mazmuniga ko‘ra, Sibir ma’muriy hokimiyati Qo‘qon xonligining da’vosini noto‘g‘ri deb isbotlashga harakat qildi. Boshqa takliflarning hammasini qabul qildi. SHu ravishda, xatda Toshkent qo‘shbegisining da’vosi o‘rinsiz ekanligi ko‘rsatilgan. Qozoqlarning majburiy yo‘l bilan emas, balki ixtiyoriy yo‘l bilan chor hukumati tobelligiga o‘tganligi va bu haqda Katta, Kichik juz Ayirtish daryosidan to Qo‘qon chegarasigacha bo‘lgan yerlarda yashaydigan aholining hammasi guvohlik berishi mumkinligi aytilgan.

Xulosa: Shuningdek, qozoqlarning o‘zlari yordam so‘rab murojaat qilganliklari tufayli chor hukumati tomonidan ularning oralaridagi janjal, urushlarni bartaraf qilish uchun va O‘rta Osiyo savdogarlarining xavfsizligini ta‘minlash uchun qo‘shin yuborilganligi va Karkarali, Ko‘kotov boshqarmalarining tashkil qilinganligi bayon etilgan. SHunday qilib, yuqorida keltirilgan hujjatlar XIX asrning 20- yillarida Qo‘qon xonligi va chor Rossiyasi siyosiy aloqalarida har ikki o‘rtadagi savdo masalalari ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Qo‘qon xonligi va chor hukumati manfaatlarining bir-biriga duch kelganligini ko‘ramiz. Bu masala bundan keyingi yillardagi Qo‘qon xonligi va chor Rossiya aloqalarida ham muhim o‘rin tutadi. Omsk oblast boshligi Garbiy Sibir general-gubernatoriga 25 iyun 1825 yilda yuborgan axborotida Qo‘qon xonligi bilan o‘zaro savdo aloqalarini mustahkamlash masalalarini muhokama qilganligini xabar qiladi: “Orenburg liniyasi orqali, - deyiladi axborotda, - Buxoro bilan savdoni kengaytirishga qaratilgan hamma harakatlarimiz xivaliklarning hujumlari hamda Kichik juzdagи notinchliklar natijasida deyarlik

yo‘qqachiqarilgan bir vaqtda qo‘qonliklarning savdoni rivojlantirishga moyilligi bu yerda, ya’ni Sibir liniyasida, savdoning gullab-yashnashiga olib keldi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, A. (2010). "O‘rta Osiyo tarixida Qo‘qon xonligi." Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
2. Karimov, I. (2008). "O‘zbekiston tarixiga oid ma'lumotlar." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Turaev, A. (2015). "Qo‘qon xonligi va uning diplomatik aloqalari." Tashkent: Sharq.
4. Shukurov, S. (2012). "O‘rta Osiyo davlatlari va Rossiya munosabatlari." Samarkand: SamDU.
5. Yuldashev, R. (2016). "Qo‘qon xonligi: Tarixiy va madaniy meros." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va San'atni rivojlantirish markazi.
6. Rasulov, M. (2014). "O‘rta Osiyo va Rossiya: Tarixiy aloqalar." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Tarixiy Merosni Asrash Jamiyati.
7. Xodjayev, A. (2011). "Qo‘qon xonligi va uning iqtisodiy rivoji." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va San'at institutlari.
8. Abdullayev, N. (2013). "O‘rta Osiyo tarixida elchilik munosabatlari." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.